

O'ZBEKISTON PROKURATURASI: KECHA, BUGUN VA ERTAGA

Najmiddinova Sarvara Nodirbekovna

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ommaviy huquq fakulteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya. *Prokuratura huquqni muhofaza qilish idoralari tizimida alohida o'rinni egallaydi. Prokuratura (lotincha: procurare - "g'amxo'rlik qilish") ayrim mamlakatlarda jinoiy ishlarni qo'zg'atish, ayblovni yoqlash, sud protsessida davlat manfaatlarini himoya qilish vakolatlari yuklatilgan maxsus davlat organidir. Dastlab XII-XIV asrlarda Fransiyada yuzaga kelgan. Bir qancha mamlakatlarda Prokuraturaga barcha fuqarolar, tashkilotlar va mansabdor shaxslarning qonunlarni aniq va bir xilda bajarishi ustidan nazorat qilish vazifasi ham kiradi. Prokuraturaning bosh vazifasi, qonun ustuvorligini qaror toptirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, davlat tuzumini, davlat va fuqarolarning mulklarini turli jinoyatchilar, huquqbuzarlardan himoya qilish hisoblanadi. Prokuratura nazorati davlat nomidan, davlatning oliy organi bo'lmish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi nomidan amalga oshiriladi. O'z yo'nalishlari bo'yicha ish olib borayotgan prokuratura tizimining bugungi kundagi tarkibiga O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Toshkent shahri prokuraturasi, viloyat prokuraturalari, shaharlar va tumanlar prokuraturalari, va boshqa ixtisoslashtirilgan prokuraturalardan iboratdir.*

Kalit so'zlar: *qonun, vazifa, prinsip, faoliyat, farmon, davlat, fuqaro, huquq, prokuratura, huquqni muhofaza qiluvchi organlar.*

Kirish. So'nggi yillarda yurtimizda olib borilayotgan islohotlar doirasida prokuratura tizimida ham tub yangilanishlar ro'y berdi. Xususan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan prokuratura organlarining qonunchilikni mustahkamlash, qonunlarga so'zsiz itoat qilinishini ta'minlash, fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish, demokratik huquqiy davlatni shakllantirish, xususiy mulk va tadbirkorlikning rivojlanishini qo'llab quvvatlash, himoya qilish bo'yicha mas'ul ekanliklari alohida belgilangan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgust, 257-II-son "Prokuratura to'g'risida"gi qonun qabul qilingan. Ushbu qonun 7 bo'lim, 56 moddadan iborat bo'lib, unda prokuratura organlarining asosiy vazifalari, yo'nalishlari, prinsiplari belgilab berilgan. Qonunning 2-moddasida prokuratura organlarining asosiy vazifalari berib o'tilgan ya'ni O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining asosiy vazifalari qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, huquqbuzarliklarni oldini olish va profilaktika qilishdan iborat. Qonunning 3-moddasida esa, prokuratura organlarini tashkil etish va ularning faoliyat yuritish tartibi, shuningdek ularning vakolatlari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, ushbu qonun

va boshqa qonunchilik hujjatlari bilan belgilanishi ham ta'kidlab o'tilgan. Prokuratura organlari faoliyatining asosiy prinsiplari esa, qonunning 5-moddasida mustahkamlab qo'yilgan. Unda yozilishicha, Prokuratura organlari faoliyatini tashkil etish va ular faoliyatining asosiy prinsiplari birlik, markazlashganlik, qonuniylik, mustaqillik va oshkoralik prinsiplariga asoslanadi. Prokuratura organlari o'z vakolatlarini har qanday davlat organlari, jamoat birlashmalari hamda mansabdor shaxslardan mustaqil ravishda, faqat qonunga bo'ysungan holda amalga oshiradilar. Prokuratura organlarining faoliyatiga aralashish taqiqlanadi. Shuningdek, prokuratura organlari qonunlarning ijro etilishini nazorat qilishga va jinoyatchilikka qarshi kurashga doir faoliyati to'g'risida jamoatchilikni muntazam xabardor qilish, o'zining faoliyati to'g'risidagi axborotdan jismoniy va yuridik shaxslarning foydalanishini qonunchilikda belgilangan tartibda ta'minlash yo'li bilan o'z faoliyatini oshkora amalga oshiradi.⁸⁶ Ushbu maqolaning maqsadi huquqni muhofaza qiluvchi organlardan biri bo'lmish prokuratura organlarining hozirgi kunda qay tariqa fuqarolarning huquq va erkinliklarini, davlat tuzumini turli xil huquqbuzarliklardan himoya qilayotgani va bu sohada qanday islohatlar amalga oshirilayotganligi to'g'risida ma'lumot beradi.

Asosiy qism. Yuqorida aytib o'tilganidek, prokuratura organlari va ularning xodimlari hisoblangan prokurorlarning vazifalari quyidagilardan iborat hisoblanadi. 1) Fuqarolarning huquq va manfaatlarini, Konstitutsiyaviy tizimni himoya qilish; 2) Jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash; 3) huquqbuzarliklarni oldini olish, aniqlash va qarshi kurashish; 4) xususiy mulk va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash kabi vazifalari keltirib o'tilgan. Hozirda prokuratura sohasida amalga oshirilayotgan islohatlardan biriga misol qilib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-maydagi farmoniga asosan Bosh prokuratura huzuridagi Majburiy ijro byurosini tashkil etilishi va uning zimmasiga energiya resurslari uchun to'lovlarni o'z vaqtida va to'liq undirish, elektr va gaz tarmoqlariga noqonuniy ulanish hamda talon-tarojlikning oldini olish, sud hujjatlari va boshqa hujjatlarning ijrosini so'zsiz ta'minlash vazifalari yuklatilganligini aytishimiz mumkin. Shuningdek, Majburiy ijro byurosi tomonidan undirilgan mablag'lar elektr va gaz tarmoqlarini modernizatsiya qilish, yangi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish obyektlarini ishga tushirish, aholining turmush darajasi va faravonligini oshirish kabi maqsadlarga yo'naltirilishi nazarda tutilganligi ham ushbu sohadagi amalga oshirilayotgan islohotlarga yaqqol misol bo'la oladi.⁸⁷ Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamisining 1992-yilning 24-yanvarida "O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida" gi 33-son qarori qabul qilindi va unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi huzurida qonunchilikni mustahkamlash muammolari va prokuror-tergov xodimlari malakasini oshirish Markazi tashkil etildi. Ushbu Markazga prokuratura organlari xodimlarining malakasini oshirishdan tashqari ilmiy faoliyat olib borishi ham belgilangan, shu sababli O'zbekiston

⁸⁶ 257-II-coh 29.08.2001. "Prokuratura to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqida <https://lex.uz/docs/-106197>.

⁸⁷ 8-sinf huquq darsligi "Huquq va Jamiyat" Toshkent-2019,135-136-sahifalar.

Respublikasi Bosh prokurorining 1994-yil 20-dekabrda 869-son buyrug'iga asosan qonunchilikni mustahkamlash muammolari va prokuror-tergov xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha Markazning Ilmiy kengashi tuzilgan. O'tgan yillar davomida respublikamizda amalga oshirilgan islohotlar ushbu markaz faoliyatini takomillashtirishni taqozo etdi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yilning 7-noyabridagi PQ-727-son qaroriga ko'ra, ushbu markaz negizida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Oliy o'quv kurslari tashkil etildi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning yangi ustuvor yo'nalishlari hamda qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlash vazifalari prokuratura organlari kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish tizimini yanada takomillashtirish zaruriyatini davrning o'zi taqozo etadi. Shu bilan birga, prokuratura organlari faoliyatining mutlaqo yangi yo'nalishlari belgilanganligi, ularning amalga oshirilayotgan islohot va o'zgarishlardagi o'rni kuchaytirilganligi yuklatilgan vazifalarni smarali bajara oladigan munosib kadrlar tarkibini shakllantirishni talab etdi. Amalga oshirilayotgan islohotlardan yana biri 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarga muvofiq, shuningdek, prokuratura organlari kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning zamonaviy tizimini yaratish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan "Prokuratura organlari kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" gi 2018-yil 8-maydagi PF-5438-son Farmoni qabul qilindi. Farmonga asosan, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasi etib qayta tashkil etilishini ham misol qilib keltirishimiz mumkin.⁸⁸

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, prokuratura organlari fuqarolarning huquq erkinliklarini ta'minlash ularni turli xil huquqbuzarliklardan himoya qilish maqsadida tashkil etiladi va faoliyat yuritadi. Prokuratura organlari tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, davlat tizimining huquqi xavfsizlikni ta'minlash va qonunlar ustuvorligini oshirish maqsadida juda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki, davlatimiz hamisha inson manfaatlarini uning huquq va erkinliklarini birinchi o'ringa qo'yadi va bu konstitutsiyamiz bilan ham mustahkamlab qo'yilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1) 257-II-coh 29.08.2001. "Prokuratura to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqidagi qonuni.
- 2) 8-sinf huquq darsligi "Huquq va Jamiyat" Toshkent-2019,192-bet.
- 3) <https://lex.uz/docs/-106197>
- 4) <https://proacademy.uz/uz-lat/menu/obschie>

⁸⁸ <https://proacademy.uz/uz-lat/menu/obschie>